PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING INKLYUZIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING AHAMIYATI

Soliyev Ilxomjon Sobirovich
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Zilolaxon G‘ofurova Abdumanop qizi
Farg‘ona davlat universiteti 2-bosqich magistranti
E-mail: zilola908334555@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24173021

Annotatsiya. Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlikning nazariy va metodik ahamiyati yoritilgan. Inklyuziv kompetensiyaning motivatsion, kognitiv, amaliy-metodik va refleksiv komponentlari pedagogik muloqot bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilingan. Kommunikativ kompetentlik o‘quvchi bilan ishonchli dialog o‘rnatish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, psixolog, logoped va boshqa mutaxassislar bilan kasbiy axborot almashish, sinfda ijobiy ijtimoiy muhit yaratish hamda pedagogik fikr-mulohazani tushunarli shaklda yetkazish qobiliyatlari majmui sifatida qaralgan. Nazariy tahlil asosida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning to‘rt bosqichli metodik modeli, amaliy vaziyatli topshiriqlar va baholash rubrikasi taklif etilgan.
Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, inklyuziv kompetensiya, kommunikativ kompetentlik, pedagogik muloqot, hamkorlik, faol tinglash, ota-ona bilan muloqot, mutaxassislararo hamkorlik, refleksiya.

Аннотация. В статье раскрывается теоретико-методическое значение коммуникативной компетентности в развитии инклюзивной компетентности будущих учителей начальных классов. Мотивационный, когнитивный, практико-методический и рефлексивный компоненты инклюзивной компетентности рассматриваются во взаимосвязи с педагогическим общением. Коммуникативная компетентность представлена как совокупность умений выстраивать доверительный диалог с учеником, взаимодействовать с родителями, осуществлять профессиональный обмен информацией с психологом, логопедом и другими специалистами, создавать позитивную социальную среду в классе и давать понятную педагогическую обратную связь. На основе теоретического анализа предложены четырёхэтапная методическая модель, практические ситуационные задания и рубрика оценивания.
Ключевые слова: начальное образование, инклюзивная компетентность, коммуникативная компетентность, педагогическое общение, сотрудничество, активное слушание, взаимодействие с родителями, междисциплинарное сотрудничество, рефлексия.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological significance of communicative competence in developing the inclusive competence of future primary school teachers. The motivational, cognitive, practical-methodological and reflective components of inclusive competence are analysed in relation to pedagogical communication. Communicative competence is viewed as a set of abilities to establish trusting dialogue with pupils, cooperate with parents, exchange professional information with psychologists, speech therapists and other specialists, create a positive social climate in the classroom, and provide clear pedagogical feedback. Based on

theoretical analysis, a four-stage methodological model, practical situational tasks and an assessment rubric are proposed.

Keywords: primary education, inclusive competence, communicative competence, pedagogical communication, collaboration, active listening, parent-teacher communication, interdisciplinary cooperation, reflection.

KIRISH

Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuziv yondashuv har bir bolaning ta’lim olish huquqini ta’minlash, turli ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning umumiy ta’lim muhitidagi ishtirokini kengaytirish va pedagogik jarayonni ularning individual xususiyatlariga moslashtirishni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirishga qaratilgan PQ-4860-son qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 638-son qarorida ta’limning ochiqligi, teng imkoniyatlar va inklyuziv ta’limni metodik jihatdan ta’minlash masalalari muhim yo‘nalish sifatida belgilangan [1;3]. Mazkur vazifalarning amaliy natijasi, avvalo, inklyuziv muhitda ishlashga tayyor, o‘quvchilar ehtiyojlarini to‘g‘ri anglaydigan va turli ishtirokchilar bilan hamkorlikni tashkil eta oladigan pedagogning kasbiy tayyorgarligiga bog‘liq. Kichik maktab yoshida o‘quvchining sinf jamoasiga moslashuvi, o‘qishga munosabati, o‘z fikrini ifodalash va boshqalarni tinglash tajribasi, o‘qituvchiga ishonchi hamda tengdoshlari bilan hamkorlik ko‘nikmalari shakllanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi faqat fan mazmunini yetkazuvchi mutaxassis emas, balki turli ehtiyojlarga ega bolalar o‘rtasidagi muloqotni boshqaruvchi, pedagogik qo‘llab-quvvatlashning mazmunini tushunarli va hurmatli shaklda yetkazuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritadi. Pedagogik adabiyotlarda inklyuziv kompetensiya o‘qituvchining turli ehtiyojlarga ega o‘quvchilar bilan samarali ishlash, ta’lim jarayonini moslashtirish, individual ta’lim strategiyalaridan foydalanish va ijtimoiy integratsiyani ta’minlashga xizmat qiladigan bilim, ko‘nikma va kasbiy munosabatlar majmui sifatida talqin qilinadi [4; 11]

Tadqiqotning maqsadi - bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlikning o‘rni va metodik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash hamda pedagogik tayyorgarlik jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan model, vaziyatli topshiriqlar va baholash mezonlarini taklif etishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inklyuziv ta’lim nazariyasida o‘quvchining ta’limdagi ishtirokini kengaytirish va uning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan pedagogik hamda ijtimoiy omillarni kamaytirish markaziy g‘oya hisoblanadi. T. Booth va M. Ainscow inklyuziyani ta’lim madaniyati, siyosati va amaliyotini barcha o‘quvchilar ishtirokiga yo‘naltirish jarayoni sifatida qaraydi [5]. Ainscow, Booth va Dyson tadqiqotlarida ham maktabdagi inklyuziv rivojlanish hamkorlik, muammolarni jamoaviy ko‘rish va ta’lim amaliyotini qayta ko‘rib chiqish bilan bog‘lanadi [6]. Mazkur yondashuvlar bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ tayyorgarligini faqat nutq texnikasi emas, balki inklyuziv ishtirokni tashkil etuvchi professional faoliyat sifatida tushunishga asos beradi. L. Florian va K. Black-Hawkins inklyuziv pedagogikada o‘qitish imkoniyatlarini ayrim o‘quvchilar uchungina emas, barcha uchun kengaytirish g‘oyasini ilgari suradi [7]. L. Florian va H. Linklater esa pedagog tayyorlash jarayoniga inklyuziv pedagogik yondashuvlarni bevosita kiritish zarurligini ta’kidlaydi [8]. Bunday tayyorgarlikda kommunikativ kompetentlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki pedagogik qarorning qay darajada inklyuziv bo‘lishi uning o‘quvchi bilan muhokama qilinishi, ota-ona va mutaxassislar bilan kelishilishi, sinf jamoasiga tushunarli tarzda tatbiq etilishiga ham bog‘liq.

L.S. Vigotskiyning bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va hamkorlikning roli haqidagi qarashlari kommunikativ yondashuvning metodologik asoslaridan biridir [9]. Bola rivojlanishi individual faoliyat bilangina emas, balki kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlik jarayonida ham yuz

beradi. Shu sababli o‘qituvchining muloqoti o‘quvchiga faqat axborot uzatish vazifasini bajarmaydi; u o‘quvchini faoliyatga jalb etish, yordam hajmini belgilash, mustaqillikka o‘tishni qo‘llab-quvvatlash va sinfdoshlar bilan hamkorlikni tashkil etish vositasiga aylanadi. R. Kershnerning hamkorlikdagi o‘rganish haqidagi qarashlari ham inklyuziv ta’limda muloqot va o‘zaro yordamning pedagog tayyorgarligi uchun ahamiyatini ko‘rsatadi[10]. Mahalliy va maxsus pedagogika manbalarida o‘qituvchining bolalar psixologiyasini bilishi, differensial yondashuvdan foydalanishi, pedagogik vaziyatni tahlil qilishi va ota-onalar hamda mutaxassislar bilan hamkorlik qilishi kasbiy mahoratning zarur tarkibi sifatida ko‘rsatiladi [4;11;12]. Kurs ishida kommunikativ kompetensiya tarkibida o‘quvchilar bilan pedagogik hamkorlik, ota-onalar bilan muloqot, psixolog va logoped bilan hamkorlik hamda ijobiy ijtimoiy muhit yaratish yo‘nalishlari alohida qayd etilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Kommunikativ kompetentlikni faqat ravon gapirish, auditoriya oldida chiqish yoki nutqiy ta’sir ko‘rsatish qobiliyati bilan cheklash inklyuziv ta’lim mazmuniga mos kelmaydi. Inklyuziv pedagog uchun kommunikativ kompetentlik - bu pedagogik vaziyatni tinglash va kuzatish orqali tushunish, suhbatdoshning imkoniyati va ehtiyojini hisobga olib muloqot usulini tanlash, tushunarli ko‘rsatma berish, savol va fikr-mulohaza orqali o‘quvchini faoliyatga jalb etish, ota-ona va mutaxassislar bilan kelishilgan yordam choralarini ishlab chiqish hamda o‘z muloqotini refleksiv tahlil qilish qobiliyatlarining tizimidir. Bu tizim inklyuziv kompetensiyaning barcha komponentlari bilan bevosita bog‘lanadi. Shuning uchun ham kommunikativ kompetentlikning markaziy funksiyasi - inklyuziv pedagogik qarorlar o‘rtasida aloqa o‘rnatishdir. O‘qituvchi o‘quvchining ehtiyojini tinglash va kuzatish orqali aniqlaydi, nazariy bilim asosida yordam variantini rejalashtiradi, ota-ona va mutaxassislar bilan uni muvofiqlashtiradi, o‘quvchiga tushunarli tarzda taqdim etadi va natija bo‘yicha qayta fikr-mulohaza oladi. Demak, kommunikatsiya inklyuziv faoliyatning boshlanishi, amalga oshirilishi va baholanishini bog‘lovchi uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Kommunikativ kompetensiya o‘quvchilar, ota-onalar va mutaxassislar bilan samarali muloqot o‘rnatish qobiliyati sifatida belgilangan hamda o‘quvchilar bilan pedagogik hamkorlik, ota-onalar bilan muloqot, psixolog va logoped bilan hamkorlik, ijobiy muhit yaratish uning amaliy yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatilgan[4]. Mazkur yo‘nalishlarni bo‘lajak o‘qituvchi tayyorgarligiga ko‘chirishda har bir muloqot turining maqsadi, mazmuni va kutiladigan inklyuziv natijasini aniq ajratish zarur.

O‘quvchi bilan dialogda kommunikativ kompetentlikning birinchi belgisi - tinglash va tushunganini tekshirishdir. O‘quvchi topshiriqni bajarmagan yoki guruh ishiga qo‘shilmagan holatda o‘qituvchi darhol baholovchi xulosa berish o‘rniga vaziyatni aniqlashtiruvchi savollar orqali o‘rganishi maqsadga muvofiq. Bunda savolning o‘zi ham inklyuziv bo‘lishi kerak: u o‘quvchini himoyalanishga majbur qilmasdan, nimada qiyinchilik sezayotganini ifodalash imkonini berishi zarur. Shundan keyingina ko‘rsatmani qisqartirish, vizual tayanch berish, topshiriqni bosqichlash yoki qo‘shimcha vaqt ajratish kabi metodik qarorlar asosli bo‘ladi.

Ota-ona bilan muloqotda esa pedagogik kuzatuv va baholovchi hukmni farqlash muhimdir. “Bola darsda e’tiborsiz” kabi umumiy yorliq o‘rniga “yozma ko‘rsatma berilganda vazifani boshlash uchun bir necha bor qo‘shimcha tushuntirish so‘radi” kabi aniq kuzatuvni bayon qilish hamkorlik uchun ko‘proq ma’lumot beradi. Bunday muloqotning maqsadi aybdorni izlash emas, bolaning ta’limdagi ishtirokini kuchaytiradigan kelishilgan choralarni belgilashdir.

Sinf jamoasidagi muloqot esa inklyuziv muhitning kundalik ko‘rinishidir. Inklyuziv ta’lim tamoyillarida har bir shaxsning muloqot qilish va tinglanish huquqi, shuningdek o‘quvchining tengdoshlar qo‘llab-quvvatlovi va do‘stona munosabatlarga ehtiyoji ta’kidlanadi [3]. Shuning uchun o‘qituvchi faqat o‘zi qanday gapirayotganiga emas, sinfda kimning ovozi eshitilayotganiga, guruh ishida kim chetda qolayotganiga, tengdoshlarning javobga qanday munosabat bildirayotganiga ham

e’tibor qaratishi lozim. Kommunikativ kompetentlik shu jihatdan ijobiy sinf madaniyatini boshqarish qobiliyatini ham qamrab oladi. Quyidagi topshiriqlar seminar, amaliy mashg‘ulot va pedagogik amaliyotga tayyorgarlik jarayonida qo‘llanishi mumkin. Ular kommunikativ kompetentlikni abstrakt tushuncha sifatida emas, inklyuziv pedagogik vaziyatni hal qilish vositasi sifatida shakllantirishga qaratilgan.

“Bir vaziyat - uch muloqot” topshirig‘i. Talabaga bir o‘quvchining darsda topshiriqni boshlashda muntazam qiyinchilik sezishi haqidagi vaziyat beriladi. Talaba shu holat bo‘yicha uchta qisqa suhbat ssenariysini tuzadi: o‘quvchi bilan aniqlashtiruvchi suhbat, ota-ona bilan hamkorlikka yo‘naltirilgan suhbat va psixolog yoki boshqa mutaxassis bilan professional axborot almashish. Har bir ssenariyda maqsad, asosiy savollar, qabul qilinadigan axborot va keyingi harakat alohida ko‘rsatiladi. Topshiriq bir xil faktni turli kommunikativ vazifaga mos ifodalashni o‘rgatadi.

“Tushunarli ko‘rsatma” topshirig‘i. Talabaga murakkab, uzun va bir nechta harakatni o‘z ichiga olgan boshlang‘ich sinf topshirig‘i beriladi. U ko‘rsatmani qisqa bosqichlarga ajratadi, asosiy harakatlarni ketma-ketlikda ifodalaydi, kerak bo‘lsa vizual tayanch yoki namuna qo‘shadi va o‘quvchi ko‘rsatmani tushunganini tekshiruvchi bitta ochiq savol ishlab chiqadi. Keyin juftlikdagi sherigi “o‘quvchi” rolida ko‘rsatmani bajarib ko‘radi. Bu topshiriq amaliy-metodik va kommunikativ komponentlarning bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

“Faol tinglash protokoli” topshirig‘i. Juftlikdagi bir talaba o‘quvchi yoki ota-ona rolida pedagogik muammoni bayon qiladi, ikkinchisi esa suhbat davomida gapni bo‘lmaslik, mazmunni qisqa qayta ifodalash, aniqlashtiruvchi savol berish va suhbat yakunida kelishilgan fikrni umumlashtirish shartlariga rioya qiladi. Kuzatuvchi uchinchi talaba tinglashdagi kuchli va zaif jihatlarni qayd etadi. Mashq tinglashni passiv sukut emas, pedagogik axborotni aniqlashtirish va munosabatni saqlashga xizmat qiladigan faol harakat sifatida shakllantiradi.

“Kuzatuvni hukmdan ajrat” topshirig‘i. Talabalarga “o‘quvchi dangasa”, “ota-ona befarq”, “bola juda agressiv” kabi umumlashtiruvchi iboralar beriladi. Ular mazkur iboralarni faqat pedagogik kuzatuvda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan aniq xatti-harakat, vaqt va vaziyatni ifodalovchi neytral bayon shakliga o‘tkazadi. Keyin ushbu kuzatuvdan kelib chiqadigan aniqlashtiruvchi savol tuziladi. Topshiriqning maqsadi tashxis qo‘yish emas, muloqotda taxmin va faktni farqlash, hamkorlikka xalaqit beradigan yorliqlardan saqlanishdir.

“Hamkorlik xaritasi” topshirig‘i. Muayyan o‘quv vaziyati bo‘yicha talaba o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona, psixolog va zarur bo‘lsa logoped o‘rtasidagi axborot almashish yo‘nalishini chizadi. Har bir ishtirokchi uchun “qaysi ma’lumot kerak?”, “kimga yetkaziladi?”, “qanday qaror kutiladi?” savollariga javob yoziladi. Natijada muloqot shunchaki ko‘p tomonlama suhbat emas, pedagogik yordamni muvofiqlashtiruvchi tizim sifatida ko‘riladi.

“Refleksiv kommunikativ kundalik” topshirig‘i. Pedagogik amaliyot davrida talaba haftasiga kamida bir muloqot vaziyatini qisqa tahlil qiladi: vaziyat, muloqot maqsadi, o‘zi ishlatgan asosiy ibora yoki savol, suhbatdosh reaksiyasi, erishilgan natija va keyingi safar o‘zgartiriladigan jihat. Bunday kundalik kommunikativ kompetentlikni bir martalik mashq emas, kasbiy tajriba asosida rivojlanadigan refleksiv sifatga aylantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Tahlil natijalari bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining inklyuziv kompetensiyasini rivojlantirishda kommunikativ kompetentlik muhim funksional o‘rin tutishini ko‘rsatdi. Inklyuziv ta’lim o‘quvchining individual ehtiyojini aniqlash, ta’limni moslashtirish va ijtimoiy integratsiyani qo‘llab-quvvatlashni talab qilsa, mazkur vazifalarning barchasi tinglash, tushuntirish, savol berish, fikr-mulohaza bildirish va hamkorlikni muvofiqlashtirish kabi kommunikativ harakatlar orqali amaliy shaklga kiradi. Kommunikativ kompetentlik inklyuziv kompetensiyaning motivatsion, kognitiv,

amaliy-metodik va refleksiv komponentlarini o‘zaro bog‘laydi. O‘qituvchining inklyuziv qadriyati tinglash va hurmatli muloqotda namoyon bo‘ladi; nazariy bilimi tushunarli ko‘rsatma va asoslangan savolga aylanadi; metodik qarori hamkorlik orqali amalga oshadi; refleksiya esa keyingi muloqot strategiyasini takomillashtiradi.

“Diagnostik-perseptiv - dialogik-loyihalash - hamkorlik-amaliy - refleksiv-korreksion” bosqichlaridan iborat model kommunikativ kompetentlikni nazariy bilimdan amaliy kasbiy xulqqa olib o‘tishga imkon beradi. Ayniqsa, bir vaziyatni turli suhbatdoshlar uchun qayta ifodalash, faol tinglash, ko‘rsatmani moslashtirish, fakt va hukmni farqlash hamda hamkorlik xaritasini tuzish kabi topshiriqlar inklyuziv pedagogik muloqotning mazmunini konkretlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni: O‘RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4860-son qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. - Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”. - Toshkent, 2021.
4. Tojiboyeva X. Inklyuziv ta’lim asoslari. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019. - 180 b.
5. Booth T., Ainscow M. The Index for Inclusion: Developing Learning and Participation in Schools. - Bristol: Centre for Studies on Inclusive Education, 2011. - P. 36-59.
6. Ainscow M., Booth T., Dyson A. Improving Schools, Developing Inclusion. - London: Routledge, 2006. - P. 55-78.
7. Florian L., Black-Hawkins K. Exploring inclusive pedagogy // British Educational Research Journal. - 2011. - Vol. 37, No. 5. - P. 813-828.
8. Florian L., Linklater H. Preparing teachers for inclusive education: Using inclusive pedagogy to enhance teaching and learning for all // Cambridge Journal of Education. - 2010. - Vol. 40, No. 4. - P. 369-386.
9. Vygotskiy L.S. Osnovy defektologii. - Moskva: Pedagogika, 1983. - 368 s.
10. Kershner R. Collaborative learning: Its importance for inclusion and teacher preparation. - Oxford: Oxford University Press, 2010. - P. 77-94.
11. Nazarova N.M. Spetsial’naya pedagogika. - Moskva: Akademiya, 2010. - 400 s.
12. Musurmonova O. Pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Fan, 2015. - 240 b.